

ZULFIYA QUROLBOY QIZI ASARLARI TILINING O‘ZIGA XOSLIGI

Umida Xushvaqtova

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti rus tili
va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Adabiyotda eng mushkul vazifa – shoir yoki adibning o‘ziga xos yo‘l topa olishi, til va uslubi jihatdan ham, so‘z tanlash mahorati bilan ham boshqalardan ajralib turishidadir. Globallashayotgan jamiyatda odamlar orasidagi munosabatlarni chuqurlashtirish, konfliktlarni kuchaytirishga e‘tibor kuchaymoqda. Badiiy asarda yozuvchining dunyoqarashi, estetik ideali asarning butun mazmunida, ya‘ni syujetidan boshlab, konfliktida, xarakterlar tizimida, obrazlarida badiiy topilmalarida to‘liq namoyon bo‘ladi. Adib insonlarni, ularning o‘zaro munosabatlari, kurashlari va ziddiyatlarini badiiy tahlil qilish orqali ular yashagan zamonning ruhini, mohiyatini ochadi. O‘ziga xos ifoda yo‘siniga ega bo‘lgan ma‘lum bir yozuvchining tili va uslubini tahlil qilish o‘zbek adabiy tilining rivojlanish dinamikasini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Keyingi yillarda antropotsentrik paradigma negizida lingvopoetik tahlil imkoniyatlari ham kengayib, integral qamrovli tadqiqotlar tamoyillarini o‘zlashtira boshladi. Binobarin, badiiy diskursda fikrni lo‘nda va ixcham tarzda ifodalab, ekspressiv ta‘sirchanlikni ta‘minlovchi lingvopoetik vosita sifatida o‘zbek mentalitetiga xos muloqot qatlamdorligini namoyon qiladi. Muallif o‘z asarlarida frazeologizmlarning so‘zlashuv uslubida faol qo‘llanish xususiyatiga tayangan holda insonning individual xarakteri, ruhiy holati va o‘zaro munosabatlardagi tig‘izlikni tasvirlovchi o‘rinlarda ko‘plab iboralarni qo‘llaydi. Mazkur maqolada Zulfiya Qurolboy qizi asarlarining til xususiyatlari, adibaning so‘z qo‘llashdagi o‘ziga xos usullari, asar jozibadorligini ta‘minlovchi unsurlardan foydalanish mahorati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: lingvopoetika, badiiy nutq, badiiy tasvir va ifoda vositalari, yozuvchi mahorati.

Lingvopoetikaning eng muhim jihati - yozuvchilarning individual uslubi, tildan foydalanish mahoratini o‘rganish bo‘lib, bundan maqsad lisoniy usul va vositalarning uyg‘unligi hamda badiiy matn kompozitsiyasida o‘ziga xos lingvistik xususiyatlarning o‘rni va badiiy-estetik ahamiyatini aniqlashdan iborat. O‘ziga xos ifoda yo‘siniga ega bo‘lgan ma‘lum bir yozuvchining tili va uslubini tahlil qilish o‘zbek adabiy tilining rivojlanish dinamikasini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Keyingi yillarda antropotsentrik paradigma negizida lingvopoetik tahlil imkoniyatlari ham kengayib, integral qamrovli tadqiqotlar tamoyillarini o‘zlashtira boshladi. Shu nuqtai nazardan,



tilshunoslikka oid semiotika, konnotatsiya, pragmatika, lingvokulturologiya, psixolingvistika kabi sohalar bilan ham bog'lanib, tahlil doirasini kengaytirib bormoqda.

Xususan, "O'zbek badiiy nasri milliy til lisoniy imkoniyatlarining miqdor va shakliga ko'ra, mazmun va ma'nosiga ko'ra qo'llanilishi uchun erkin va til boyligini namoyon etuvchi muhim vositadir. Nasr milliy tilning yashash shakllaridan biri, adabiy til uslubining o'ziga xos nutqiy ko'rinishi, tilning badiiy-estetik vazifasini yuzaga chiqaradigan nutqiy jarayon, nutqiy san'at, til vositalaridan foydalanish mahoratini namoyon etuvchi lisoniy maydon"dir.

Zulfiya Qurolboy qizi asarlarining til xususiyatlari haqida gapirganda, keyingi davrda o'zbek adabiyotida rivojlanib borayotgan she'riy nutqqa xos poetik vositalarning nazmda ham qo'llash tendensiyasi namunalarini ko'rish mumkinligiga ham e'tibor qaratish o'rinlidir. Masalan, adiba asarlarida takror, epitet, alliteratsiya, inversiya kabi badiiy tasvir va ifoda vositalari qo'llangan o'rinlarda ham shaklan, ham mazmunan nasrdagi lirizm uyg'unligini kuzatish mumkin.

Epitet tavsiflashning ekspressivlikni ta'minlovchi stilistik vositalaridan biri sifatida keng qo'llanadi. Epitet, ko'chim asosidagi ekspressiv bo'yoqdor sifatlashning yuqori darajadagi ko'rinishidir. Tavsiflanayotgan narsa, tushuncha, voqea-hodisaning betakror, xarakterli belgisini ifodalay olsagina epitet sanaladi. An'anaga ko'ra, she'riy nutq jozibadorligini ta'minlashda epitetlar faol tasviriy ifoda vositasidir. Biroq, nasriy asarlarning tobora chuqurlashib borayotgan ifoda imkoniyatlari negizida epitetning ham o'ziga xos qirralari teranlashib bormoqda. Jumladan, Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalarida ham muallif epitetlarini kuzatish mumkin:

1) Men yaxshiman, ena. Endi uyga ketamizmi?

Bir necha daqiqa ichida Buvgul xolaning **yuragini yeb bitirayozgan dahshatli xavotir** tarqadi-ketdi. Toki o'g'lining ko'zlari chaqnab boqarkan, hali nimadandir umid qilsa bo'ladi, bundan ortiq nima kerak? (Zulfiya Qurolboy qizi, "Yozsiz yil" hikoyasi)

2) O'sha kuni ham onasi bilan gaplashganida qovog'ini ochmadi, aksincha:

- Hech ish qilmasangiz ham ulingizning ketidan poylab yuring, degandim-ku, - deya aql o'rgatdi u. - Kim biladi, boshi og'ib, qayoqlarga uloqib ketdiykin? Ko'ngliga qarayverib, bolani **besoat** qilib qo'ydingiz, ena! (Zulfiya Qurolboy qizi, "Yozsiz yil" hikoyasi) 3) - O'zingiz kech bo'lganda nima qilib yuribsiz, ena?

- Ena bilan ukadan xabar olmay gumqovib yotganingdan keyin **tirik arvohd**ay izillab yuraman-da!

- Ena...(Zulfiya Qurolboy qizi, "Yozsiz yil" hikoyasi)



4) Buvgul xolaning **charchoq nigohlari** to'ng'ichiga ta'nali boqdi, ammo lom-mim demadi. (Zulfiya Qurolboy qizi, "Yozsiz yil" hikoyasi)

5 ...osmonda **uvada bulutlar** kezinar... (Zulfiya Qurolboy qizi, "Ayol" hikoyasi)

Berilgan misollardagi **yuragini yeb bitirayozgan xavotir, besoat (bola), tirik arvohday, charchoq nigohlar, uvada bulutlar** birikmalaridagi individual tavsiflar muallif epitetlaridir.

"Qadimiy qo'shiq" hikoyasi qahramoni Sultonmurodning ruhiyati, ichki iztiroblari, yetisholmagan sevgi iztiroblari borib-borib uni xarob qiladi. Adiba personajning ana shu dardlarini uning ichki nutqi orqali quyuq bo'yoqdor epitetlar orqali ochib beradi: Sultonmurod churq etmadi. Ichidan zil ketdi. **Ayriliqqa, azob-uqubatlarga to'la dunyo** qad rostladi qarshisida. Biroq yigit tishini tishiga bosdi, chidadi, chunki **barbod bo'lgan dunyo vayronalari ustida** shunday **ulug'vor koshona** bunyod etgandiki, bu koshonaga istagan yerda, istagan vaqtida kiradi-chiqadi; bu yerda **iztiroblardan zada qalbi** orom topadi, qiyg'os gullagan shaftolining yoqimli hidi dimog'iga urilgandek bo'ladi, qaynoq, betakror bo'salar ta'mini tuyadi lablari...(Zulfiya Qurolboy qizi, "Qadimiy qo'shiq" hikoyasi)

Ma'lumki, badiiy ifodada yangicha usul va yondashuvlarni topish, so'z va iboralardan alohida o'ziga xos tarzda foydalanish, tuyg'ularga to'la jozibali jumlar, o'rinli detallarni tanlash, nostandart qahramonlar obrazlarini izlash va yaratish eng qiyin va mashaqqatli ishlardan biridir.

"Do'xtir yaxshi gap aytmagan, - o'ylardi ona. - Bechora bolamning enka-tinkasi qurib ketibdi. Do'xtir ham **toza nokas** odam ekan-da. Uzil-kesil javob aytmadan, umidvor qilib yuborsa bo'lardi-ku! Odamlar bir og'iz shirin so'zga buncha xasis bo'lishmasa?!" (Zulfiya Qurolboy qizi, "Yozsiz yil" hikoyasi)

Ertalab soat sakkizlar atrofida ayvondan kelayotgan shovqin-suron qulog'iga chalingan Buvgul xola irg'ib o'rnidan turdi.

"**Toza uxlabman**-ku, menga ne bo'ldi?" - deya g'udranganicha qasabasini boshiga qo'ndirib, choponini yo'l-yo'lakay yelkasiga ilgancha, tashqariga yo'naldi. (Zulfiya Qurolboy qizi, "Yozsiz yil" hikoyasi)

Toza [forscha - yangi, yosh, nozik; yashil (nihol)]

1. Kir, chang, ifloslik va sh.k.dan xoli (xoli qilingan), ozoda, pokiza.

2. Chang - g'ubordan xoli; beg'ubor, sof, musaffo. Toza osmonda yulduzlar charaqlaydi.

3. Aralashmalardan xoli; sof, asil. Toza oltin.

4. Xirildoq va sh.k. kamchiliklardan xoli, jaranglab chiqadigan tovush, ovoz haqida. hofizning toza va shirali ovozi

5. ko'chma Dog' tushmagan, bulg'anmagan; sof, pok. Toza vijdon. Toza nom.



6. ravish. Juda ham, rosa. Toza charchadik.

7. sheva. Yangi. Toza maktab ochsang, kofir deydi, gazeta o'qisang, dahriy deydi. J. Sharipov, Xorazm. (O'TIL, 4-jild, 133-b.)

Izohlardan ko'rinadiki, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da toza leksemasining 7 xil ma'nosi berilgan bo'lib, 2,3, 4, 5 va 7 ma'nolari bosh ma'nodan o'sib chiqqan hosila ma'nolardir. Biroq, "juda ham", "rosa" ma'nolarini bildiradigan variantining bu ma'nolarga aloqadorligi kuzatilmaydi. Bu haqda "Hozirgi o'zbek adabiy tili" (1992) darsligida ham quyidagicha fikr bildirilgan: "Bu leksemaning yana bir ma'nosi bor – **“o'ta darajada”**, **“rosa”**. Lekin bu ma'no (kuchaytirish ma'nosi) yuqorida ta'kidlangan leksik ma'nolardan keskin farq qiladi. Bu ma'no tabiatan grammatik ma'no bo'lib, uni shu leksemaning leksik ma'nolariga bog'lash ham qiyin: toza charchamoq, toza kuttirmoq kabi".

Bizningcha, "rosa" ma'nosidagi **toza** leksemasi ravish so'z turkumiga mansub bo'lib, toza sifatiga nisbatan aloqadorligi tamoman uzilib, omonimga aylangan va, asosan, so'zlashuv uslubida qo'llanadi. Shunisi e'tiborliki, Zulfiya Qurolboy qizi "Yozsiz yil" hikoyasida toza leksemasini sifatga nisbatan (toza nokas odam, toza bebosh, toza qiyin ekanda), fe'lga nisbatan (toza uxlabman-ku toza ovora bo'lyapsiz-da, toza baqiribdi), iboraga nisbatan (toza ixtiyoriga qo'yib yubormay, toza esi ko'p qiz, toza xit qilib yubordingiz-ku, toza hunarini ko'rsatdi, toza og'zi shaloq bo'p ketibdi) qo'llagan. Shuni ham aytib o'tish joizki, hikoyada Buvgul xola, Sobir, Mamatqul kabi personajlar nutqida baravar qo'llanilishi voqelik kechayotgan makonda bu so'zning shevaga xos xususiyat ekanligi bilan izohlanadi.

"Elga joriya qilmasang bo'lardi", - demoqchi bo'ldi ona, ammo indamadi. (Zulfiya Qurolboy qizi, "Yozsiz yil" hikoyasi)

Jumladagi elga joriya qilmoq birikmasi Tog'ay Murod ijodida ham o'zgargan shaklda uchraydi: Raisning suyug'oyoqligi elga joriya bo'ldi. (T.Murod, "Yulduzlar mangu yonadi") Demak, bu birikma jonli xalq tiliga mansub bo'lib, shevalarda qo'llanadi. Bu o'rinda uning shakllanish jarayonini hamda semantik mazmunini oydinlashtirish kerak bo'ladi.

Joriy etmoq (yoki **qilmoq**) 1) amalga oshirmoq, kuchga kirgizmoq. 2) tatbiq etmoq, qo'llamoq, yoymoq. (O'TIL, 2-jild, 127-b.) Izohdan ko'rinadiki, joriy etmoq leksemasining ovoza qilmoq, yoymoq semasi ham mavjud bo'lib, elga joriya qilmoq birikmasida ana shu sxema aktuallashadi. Bunda joriy so'zining joriya variantiga aylanishi ham harakatning davomiyligini ifodalashga xizmat qiladi.

Ma'lumki, frazeologizmlar xalq hayoti, turmush tarzi, geografik o'rni, tarixi, an'ana va urf-odatlarini yorqin ifodalab, tushuncha va hodisalarni obrazli tasvirlaydi. Milliy-madaniy kodlar asosida yuzaga kelganligi uchun ham umumxalq ongida "qulay" til birligi hisoblanadi. Shuning uchun ham badiiy dikursda fikrni lo'nda va ixcham tarzda ifodalab, ekspressiv



ta'sirchanlikni ta'minlovchi lingvopoetik vosita sifatida o'zbek mentalitetiga xos muloqot qatlamdorligini namoyon qiladi. Zulfiya Qurolboy qizi o'z asarlarida frazeologizmlarning so'zlashuv uslubida faol qo'llanish xususiyatiga tayangan holda insonning individual xarakteri, ruhiy holati va o'zaro munosabatlardagi tig'izlikni tasvirlovchi o'rinlarda ko'plab iboralarni qo'llaydi.

“Endi nima bo'ladi? Bolam bir umr yolg'iz o'tadimi?” - degan o'ylar **xonumonini kuydirardi**, albatta, ammo o'g'lining chivinday **joni qil ustida turgan** kezlarda bu o'ylar xayolidan ko'tarilib, mutlaqo ahamiyatsiz bo'lib qolardi. (Zulfiya Qurolboy qizi, “Yozsiz yil” hikoyasi)

Kasalmand o'g'ilga nisbatan **joni qil ustida turgan**, ana shu o'g'li uchun jonini jabborga berayotgan onaga nisbatan (o'ylar) **xonumonini kuydirardi** iboralarning qo'llanishi voqelikning qabariq holda tasavvur qilish imkonini beradi.

“Tiq” etsa eshikka ko'z tutib o'tirish oson emasdi. Buvgul xola istar-istamay ishga unnadi. Keksaygan chog'ida **qo'lini sovuq suvga urmay**, huzur-halovatda yashash o'rniga, to'ng'ich o'g'li bilan kelinining ro'zg'orini bo'lak qilib, o'zi hali-hamon **qo'li kosov, sochi supurgi bo'lib** yurganini o'ylab gohida Buvgul xola to'lib ketadi, lekin o'zi, faqat o'zi bu qismatni o'ziga ravo ko'rgani bois, **alamini ichiga yutadi**. (Zulfiya Qurolboy qizi, “Yozsiz yil” hikoyasi)

To'ng'ich o'g'ilning ro'zg'orini bo'lak qilishdan maqsad zahirida esa o'zbek onalariga xos jonfidolik yotadi, ya'ni ona kasalmand Sobirjonga qattiq gapirib qo'yishmasin, dilini og'ritishmasin degan andishada **qo'lini sovuq suvga urmay**, huzur-halovatda yashash o'rniga **qo'li kosov, sochi supurgi bo'lib** yurishga ham rozi. Shu tariqa, adiba Buvgul xolaning o'z o'yxayollari orqali uning iztirobga to'la ruhiy holatini “chizib beradi”. Shuningdek, onaning o'g'liga achingan, kuyingan holatlarida ichidan qirindi o'tdi, yuragi orqaga tortib ketdi, sabr kosasini to'ldirib yubordi kabi iboralarning qo'llanishi ham o'quvchini uning iztiroblarini his qilishga, hamdard bo'lishga undaydi.

Zulfiya Qurolboy qizining ifoda yo'sinidagi o'ziga xos jihatlaridan yana biri shundaki, adiba personajlarning ruhiy holatlari tasvirini peyzaj bilan uyg'unlashtira oladi.

Aft-angorimga qarang, yaxshilab qarang, men yaqin-o'rtada o'ladigan odamga o'xshaymanmi? O'zimni har qachongidan yaxshiroqhis etyapman. Yashash uchun bundan ortiq yana nima bo'lishi kerak? - Ayol yurishdan to'xtadi. **Havo sovugan**, osmonda **uvada bulutlar** kezinar, quyosh **xiragina nur sochar**, qorning hidi kelardi. - Men oynaga boqib, qayta-qayta tikildim o'zimga, o'ladigan odamning yuzi bunaqa bo'lmaydi. Siz ham eshitganmisiz shu gapni? - Ha, eshitganman, - dedi Shavkat shubhaga o'rin qoldirmaydigan ohangda. - Ana, ko'rdingizmi, - Nazokatning allaqanday ichki nurdan yuzi yorishdi. U nariroq borib kungay yerda turdi, ayolning



qorachiqilarida olov akslandi. - Haliyam **havo bulut**, - dedi u, - **yorug'lik tiniq emas**. Bu havo odamning rangini ochmaydi, bo'g'ib qo'yadi! (Zulfiya Qurolboy qizi, "Ayol")

Havoning sovuqligi, uvada bulutlar, quyoshning xira nur sochishi, yorug'likning tiniq emasligi kitoxon ko'z oldida hayot uchun kurashayotgan Nazokatning hamda xotinining ahvolidan o'zini yo'qotayozgan Shavkatning ruhiy holatiga hamohang gavdalanadi.

Tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki, Zulfiya Qurolboy qizining xalq jonli so'zlashuv tilini chuqur bilishi va badiiy ifodada undan samarali foydalana olishi muallif asarlarining badiiy-estetik qimmatini ta'minlovchi yetakchi omillardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Umurqulov B. O'zbek badiiy nasrining lingvo-uslubiy shakllanish asoslari: filol.fanlari doktori (DSc) diss...avtoref. Toshkent, 2020.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati, 2-jild, Toshkent: O'zME nashriyoti, 2007.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati, 4-jild, Toshkent: O'zME nashriyoti, 2007.
4. Yoqubov O. So'z. Toshkent.: "Sharq" nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2019.
5. Dadaboev H. O'zbek adabiy tili leksikasi tarixi. Toshkent.: "Fan", 2007.
6. Yefimov A.I. Stilistika xudojestvennoy rechi. Moskva.: "Nauka", 1981.
7. Rahmatullaev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. Toshkent.: "Qomus" nashriyoti, 1992.
8. Shomaqsudov Sh. Shorahmedov Sh. Ma'nolar mahzani. T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – 480 b.

